

Aksiyadorlik-tijorat Xalq banki tomonidan \_\_\_\_\_ yilda berilgan \_\_\_\_-sonli ishonchnomaga asosan faoliyat ko'rsatuvchi \_\_\_\_\_, nomidan Boshqaruvchi \_\_\_\_\_ kelgusida «Bank» deb yuritiluvchi, bir tomonidan va o'z nomidan yoki uning nomidan harakat qiluvchi fuqaro \_\_\_\_\_, kelgusida «Omonatchi» deb ataluvchi, ikkinchi tomondan ushbu shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar.

### **1. Shartnoma predmeti**

1.1. «Bank» «Omonatchi»dan pul mablag'larini *muddatli* omonat turiga \_\_\_\_\_ hisobvarag'iga \_\_\_\_\_ milliy valyutada naqd pul yoki naqd pulsizshaklda qabul qiladi.

1.2. Omonat turining nomi \_\_\_\_\_, topshirayotgan mablag' miqdori \_\_\_\_\_, saqlash muddati \_\_\_\_\_, foiz stavkasi (yillik) \_\_\_\_\_ foiz.

\_\_\_\_\_ omonatga omonatchi tomonidan qo'shimcha badal kirim qilishi ko'zda tutilgan.

\_\_\_\_\_ omonatidan mablag'larni qisman yechib olish omonatning minimal miqdori 10 000 000 so'm saqlanib qolgan holda amalga oshiriladi. Hisobvaraqlar bo'yicha debet aylanmasi 10 000 000 000,00 so'mdan oshishiga yo'l qo'yilmaydi.

Omonat avtomatik ravishda boshqa muddatga uzaytirilishi mumkin (agar muddat tugaganidan keyin u omonatchi tomonidan olinmasa), agar uzaytirish vaqtida ushbu turdagi omonat \_\_\_\_\_ amalda bo'lsa.

1.3. Omonat hisobvarag'iga pul kiritilish sanasi \_\_\_\_\_ kuni hisoblanadi, omonatni qaytarish sanasi \_\_\_\_\_ kuni hisoblanadi. Saqlanish muddati tugaganidan keyin omonatchi ushbu hisobvaraqlarni yopmasa, ushbu hisobvaraqlar foizlar hisoblanmaydi.

### **2. Tomonlarning huquq va majburiyatlari**

2.1. Muddatli omonat, muddat tugagunga qadar yoxud bank omonati shartnomasida ko'rsatilgan boshqa holatlar yuz bergunga qadar omonatchining talabi bilan unga qaytarilgan hollarda, omonat bo'yicha foizlar 1.2.-bandida ko'rsatilgan shartlarda emas, balki omonatchiga berilgan foizli mablag'lar omonatni asosiy qismidan undirib qolinadi.

2.2. Omonat summasiga foizlar \_\_\_\_\_-oyma-oy to'lanadi, talab qilib olinmagan foizlar omonat summasiga qo'shilib boriladi hamda kapitalizatsiya qilinmaydi.

2.3. «Omonatchi» yoki uning operatsiyasi sanksiya ta'sir doirasiga tushganda yoki tushish xavfi mavjud bo'lganda, operatsiyani o'rganish maqsadida qo'shimcha ma'lumotlarni so'rash, operatsiya miqdorini chegaralash, operatsiyani cheklash (rad etish) yoki amalga oshirayotgan operatsiyalar «Omonatchi»ning anketasidagi profiliga nomuvofiq bo'lgan hollarda xizmat ko'rsatishni rad etish va «Omonatchi» bilan shartnomalarni bir tomonlama bekor qilish huquqlariga ega.

2.4. Amalga oshirilishi ko'zda tutilgan operatsiya oqibatida bankka nisbatan iqtisodiy sanksiyalar qo'llanish xavfi mavjud bo'lgan taqdirda bank «Omonatchi»ga hisobvaraqlar ochishni va operatsiyani amalga oshirishni rad etish huquqiga ega.

### **3. Tomonlarning javobgarligi**

3.1. Shartnoma majburiyatlari bajarilmaganda yoki lozim darajada bajarilmaganda, tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

### **4. Nizolarni hal qilish**

4.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha yuzaga kelgan barcha bahsli holatlarni va kelishmovchiliklarni va nizolarni muzokara yo'li bilan hamda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tegishli sud organlari orqali hal etiladi.

### **5. Fors major holatlari**

5.1. Taraflarning biri boshqa tarafning oldida ushbu shartnoma bo'yicha olgan majburiyatlarini fors-major holatlarida, ya'ni taraflarning erki va istagidan tashqari vujudga kelgan hamda ularni oldindan ko'ra bilish yoki bartaraf etishi mumkin bo'lmagan holatlarda (pul kredit siyosatidagi dinominatsiya, yer qimirlash, suv toshqini, yong'in va boshqa tabiiy ofatlar) bajarmaganliklari uchun javobgar bo'lmaydilar. Majburiyatni to'liq bajarishdan ozod qilinishi uchun fors-major holatlari asos bo'ladi.

### **6. Boshqa shartlar**

6.1. Shartnomani imzolash orqali omonatchi bank qoidalari va tariflari bilan tanish ekanligini tasdiqlaydi, hamda ularga rioya qilish majburiyatini oladi.

6.2. Bank «Omonatchi» yoki uning vakillari topshirig'iga binoan, bankning omonat hisobvarag'ida turgan pul mablag'lari bilan bank operatsiyalari bo'yicha amalga oshirilgan xizmatlar uchun, taraflarning qo'shimcha kelishuviga muvofiq bank Tarifiga asosan vositachilik haqi undirish huquqiga ega.